

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Z. AKBAROVA, M.A.UMAROVA,
N.A. SHAKIROVA

MEHNAT

STATISTIKASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

KIRISH

Globalizatsiya jarayonlari va innovatsion rivojlanish mehnat munosabatlarining mazmuni va xarakterida tub o‘zgartirishlar sodir bo‘lishiga olib keldi, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishchi kuchidan oqilona foydalanish, nisbiy ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta‘minlash va qayta taqsimlash, ehtiyojga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash, mehnatga munosib haq to‘lash, mehnatkashlarni rozi qilish va ularni real daromadlarini oshirish va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to‘lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur”¹, deb ta‘kidlagani ushbu muammolarni naqadar dolzarbligidan dalolat beradi.

Aholini hayoti sifatini oshirish, uni aqliy mehnat bilan shug‘ullanish, O‘zbekistonni jahon iqtisodiyotida munosib o‘rinni egallash maqsadida 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha rivojlantirish strategiyasi strategik dasturiy hujjat qabul qilindi. Harakatlar strategiyasi mamlakatni hududiy va tarmoqlar kesimida rivojlantirish, eng maqbul investitsion va boshqalar biznes muhitini yaratish, makroiqtisodiy muvozanat va iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligiga erishish, O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashining deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan. Ushbu strategik maqsadlarning barchasi O‘zbekiston aholisining turmush darajasi va sifatini oshirishga yo‘naltirilgan.²

Harakatlar strategiyasida aholi ish bilan bandligini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishsizlik darajasini pasaytirish, mehnatga layoqatli fuqarolarning mehnat qilish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ish izlayotgan muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri qilib belgilangan.³

¹ 29 - dekabr 2018- yil www.uzlider.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot rahbarining 2019 yil uchunmo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi

² Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti Dayjest./ V.L. Kvint.-Toshkent:Tasvir,2018.-160 b.

³ <http://uza.uz>